

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

VETERINARIYA PROFILAKTIKASI VA DAVOLASH FAKULTETI

“Epizootologiya va infeksiyon kasalliklar” kafedrası

**“PARRANDA KASALLIKLARI”
FANIDAN**

**“Go’sht yo‘nalishidagi jo‘jalarni kasalliklarga qarshi emlash tadbiri”
mavzusi bo‘yicha o‘tkaziladigan ochiq laboratoriya dars uchun**

USLUBIY ISHLANMA

Veterinariya meditsinasi (faoliyat turlari bo‘yicha)



SAMARQAND – 2026

Tuzuvchi:

Qirg'izboyev M.A. - "Epizootologiya va infeksiyon kasalliklar" kafedrasida assistenti.

Taqrizchilar:

Rustamov B.S. - "Epizootologiya va infeksiyon kasalliklar" kafedrasida v.b.dotsenti.

Safarov X.A. - Veterinariya ilmiy-tadqiqot instituti "Parranda, quyon, baliq va asalari kasalliklari laboratoriyasi" katta ilmiy xodimi v.f.f.d., (PhD).

**“Go’sht yo‘nalishidagi jo‘jalarni kasalliklarga qarshi emlash tadbiri”
laboratoriya mashg‘ulotining o‘qitish texnologiyasi.**

Vaqt: 2 soat	<i>Talabalar soni: 23 nafar</i>
O‘quv mashg‘ulotining shakli:	Laboratoriya mashg‘ulot
O‘quv mashg‘ulotining rejasi:	1.Parrandalarda emlamalarni qo‘llash usullari. 2.Parrandalarda antibiyotiklarni qo‘llash usullari. 3.Parrandalarda prabyotiklarni qo‘llash usullari.
<i>Darsning maqsadi:</i> Talabalarda amaliyot bilan bog‘langan ko‘nikmalar hosil qilish. Shu bilan bir qatorda talabalarga vaksinalarni tayyorlash usullari va to‘g‘ri qo‘llash usullarini o‘rgatish. Antibiyotiklarni dozalash va qo‘llash usullari haqida tushuncha hosil qilish. Prabyotiklarning parrandalar organizimiga foydali va salbiy tamonlarini o‘rgatish, prabyotiklarning tarkibi va qo‘llash dozasi va usullari bo‘yicha talabalarda amaliy ko‘nikmalarni hosil qilish.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> Parrandalarda vaksinalar, antibiyotiklar va prabyotiklarni berishga tayyorlash va qo‘llash usullarini amaliy ko‘rsatib berish talabalarda ko‘nikmalar hosil qilishda amaliy yordam berish.	<i>O‘quv faoliyati natijalari:</i> Talabalar: Parrandalarni vaksinatsiya qilish, vaksinalarni to‘g‘ri tayyorlash, to‘g‘ri qo‘llash usullarini o‘rganadi va o‘z qo‘li bilan bajarib ko‘radi. Antibiyotik va prabyotik haqida ma‘lumotga ega bo‘ladi ularni qo‘llash usullari bo‘yicha amaliy ko‘nikmalar hosil qiladi.
<i>Ta’lim usullari</i>	Laboratoriya mashg‘ulot, kichik guruhlarda ishlash, aqliy xujum
<i>Ta’limni shakllantirish shakli</i>	Jamoaviy guruhli
<i>Ta’lim vositalari</i>	Laboratoriya mashg‘ulot mavzusi bo‘yicha dars ishlanmasi, tarqatma materiallar: Vaksinalar, antibiyotiklar va prabyotiklar. Vaksina aparati, pepetkalar, shprist, va parrandalar.
<i>Ta’lim berish usullari</i>	Maxsus texnik vositalar bilan jihozlangan auditoriya
<i>Monitoring va baholash</i>	Og‘zaki so‘rov: tezkor – so‘rov, test.

Labaratoriya mashg'ulotning texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchi
1 – bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (10 daq.)	1.1. Salomlashish, davomatni aniqlash, talabalar darsga tayyorgarligini tekshirish va o'tilgan mavzu bo'yicha tushunchalarni so'rash. 1.2. Mavzuni mohiyati, uning maqsadi, o'quv mashg'ulotidan kutilayotgan natijalar ma'lum qilinadi.	Eshitadi, so'zlab beradi, yozib oladi.
2 – bosqich. Asosiy (60 daq.)	2.1. Talabalar e'tiborini jalb etish va bilim darajalarini aniqlash uchun tezkor savol-javob o'tkazadi. (Aqliy hujum metodi 1-ilova) 2.2. O'qituvchi vizual materiallardan foydalangan holda mashg'ulotning qisqacha bayonini tushuntirib beradi. (Klaster metodidan foydalangan holda 2-ilova) 2.3. Talabalarga mavzuning asosiy tushunchalariga e'tibor qilishni va yozib olishlarini ta'kidlaydi. 2.4. Guruhni guruhchalarga bo'ladi va har bir guruhga topshiriq beradi. (Kichik guruhlarda ishlash metodi 3-ilova) 2.5. O'qituvchi guruhlar bajarayotgan ishlarni nazorat qilib yo'riqnoma berib boradi.	2.1. Eshitadi. Navbat bilan mavzularni aytadi. O'ylaydi, javob beradi. 2.2. Sxema va jadvallar mazmunini muhokama qiladi. Savollar berib, asosiy joylarini yozib oladi. 2.3. Eslab qoladi, yozadi.
3 –bosqich. Yakuniy (10 daq.)	3.1. Mavzuni yakun qiladi, qilingan ishlarni kelgusida kasbiy faoliyatlarida ahamiyatga ega ekanligiga talabalar e'tiborini qaratadi. 3.2. Guruh ishini baholaydi; 3.3. Uyda bajarish uchun topshiriq beradi va baholash mezonlari bilan tanishtiradi.	O'z-o'zini, o'zaro baholashni o'tkazadilar. Savol beradilar. Topshiriqni yozadilar.

O'quv elementlari: Parrandalarni vaksinatsiya qilish, vaksinalarni to'g'ri tayyorlash, to'g'ri qo'llash usullarini o'rganadi va o'z qo'li bilan bajarib ko'radi. Antibiyotik va prabyotik haqida ma'lumotga ega bo'ladi ularni qo'llash usullari bo'yicha amaliy ko'nikmalar hosil qiladi.

Mavzu bo'yicha tayanch tushunchalar: Aniq ma'lumotlarga asoslanib parrandalar ularni vaksina qilish usullari (ayrazol, okulyarni, vipeyka va ineksiya) va dozlarini aniqlash. Vaksinalarni ishlatishga tayyorlash va eritish usullari. Parrandachilikda antibiyotik va prabyotiklarni qo'llash usullari.

1-ilova

B/B/B jadvali


Bilaman	Bilishni hohlayman	Bilib oldim

2-ilova

Aqliy xujum metodi

1. Vaksina nima?
2. Vaksina qilishning qanday usullarini bilasiz?
3. Ayrazol usul nima?
4. Okulyarni usul qanday vaksina usuli?
5. Vipeyka usuli haqida ma'lumot bering?
6. Inyeksion usul haqida nimalarni bilasiz?
7. Parrandalarga antibiyotiklar qanday beriladi?
8. Parrandalarga prabyotiklarni qanday beriladi?

Klaster metodi



“KICHIK GURUHLARDA ISHLASH”.



Kichik guruhlarda ishlash talabalarning darsda faolligini ta'minlaydi, har biri uchun munozarada qatnashish huquqini beradi, bir-biridan auditoriyada o'rganishga imkon tug'iladi, boshqalar fikrini qadrlashga o'rgatadi.

Kirish testi

1. Parrandalar qanday usullarda vaktsinatsiya qilinadi?
A.Okulyarni
B.Ayrazol
C.Vipeyka va ineksiya
D.Barcha javoblar tug'ri
2. 1000 ta 10 kunlik broyler jo'jalarini lasatta shtami bilan vipeyka vaksina usuli bilan vaktsinatsiya qilishga qancha suv talab etiladi(chanqatish vaqti 2 soat deb qaralsin) ml.?
A.20000
B.30000
C.10000
D.40000
3. 1000 ta 10 kunlik broyler jo'jalarini lasatta shtami bilan okulyarni vaksina usuli bilan vaktsinatsiya qilishga qancha suv talab etiladi(tomchi hajmi 0.03ml deb qaralsin) ml.?
A.30
B.40
C.20
D.50
4. Laktobakteriyalar – *Lactobacillus acidophilus*, *L. plantarum* nimaning tarkibiga kiradi?
A.Vitaminlar
B.Antibiyotiklar
C.Prabyotiklar
D.Antigelmentikar
5. Lasotta qaysi kasallikning vaksinasi hisoblanadi?
A.Gambora
B.Marek
C.Nyukasl
D.Infeksion bronxit
- 6.QX qaysi kasallikning vaksinasi hisoblanadi?
A.Gambora
B.Marek
C.Nyukasl
D.Infeksion bronxit

«Tasdiqlayman»
“Epizootologiya va infeksiyon kasalliklar” kafedrasini mudiri,
v.f.f.d. Xudjamshukurov
“26” DEKABR 2025 yil.

«Go'sht yo'nalishidagi jo'jalarni kasalliklarga qarshi emlash tartibi»
mavzusidagi laboratoriya ishining

P A S P O R T I (2-soat)

Mashg'ulotning maqsadi: Mashg'ulot davomida talabalar parrandachilik xo'jaliklarida go'sht yo'nalishidagi jo'jalarni kasalliklarga qarshi emlash tartibi usullarini o'rganadilar.

Kerakli jihozlar: Turli rasmi jadvallar, taqdimotlar, slaydlar, mikroskop, turli xil jadvallar, broyler, emlamalardan namunalar, antibiotiklar, probiotiklar uchun ishlatiladigan preparatlardan namunalar.

Go'sht yo'nalishidagi parrandachilik xo'jaliklarida eng muhim ishlatiladigan asosiy preparatlar:

1. Emlamalar jadvali
2. Antibiotiklar
3. Probiotiklar

Adabiyotlar:

1. Davlatov R.B., Salimov X.S., Xudjamshukurov A.N. Parrandalar kasalliklari. O'quv qo'llanma. Samarqand, 2018 yil.
2. Salimov X.S., Qambarov A. Epizootologiya. Darslik. Toshkent, 2016 yil.
3. Bakirov B.B. Ichki yuqumsiz kasalliklar. O'quv qo'llanma. Samarqand, 2015 yil.
4. G'afurov A.G., Davlatov R.B., Rasulov O'R. Veterinariya protozoologiyasi. O'quv qo'llanma. "Zarafshon" nashriyoti, Samarqand, 2013 yil.
5. Бессаробов Б.Ф. и др. "Болезни птиц", Учебное пособие. Москва, Издательство, "Лан" 2007 год.

Tuzuvchilar:

Dotsent  Z.B.Mamatova
Assistentlar:  J.M.Sattorov
 M.A.Qirg'izboyev

Mavzu: Go'sht yo'nalishidagi jo'jalarni kasalliklarga qarshi emlash tartibi

Mashg'ulotning maqsadi: Mashg'ulot davomida talabalar parrandachilik xo'jaliklarida go'sht yo'nalishidagi jo'jalarni kasalliklarga qarshi emlash tartibi usullarini o'rganadilar.

Kerakli jihozlar: Turli rasmi jadvallar, taqdimotlar, slaydlar, mikroskop, turli xil jadvallar, broyler, emlamalardan namunalari, antibiotiklar, probiotiklar uchun ishlatiladigan preparatlardan namunalari.

Parrandachilik xo'jaliklarida emlamalarni qo'llash

Parrandachilik xo'jaliklarida kasalliklarning oldini olishda profilaktik emlash (vaktsinatsiya) eng muhim choradir. Emlashlar yordamida parrandalar asosiy virusli va bakterial infeksiyalarga qarshi immunitet hosil qiladi.

Vaksina grafik broyler uchun

0-kun NDLS IB 1.3 doza +IBqx + 4/91(ixtiyoriy)

IBD MHV 1 doza ukol

ND L INAKTIV 0.1 ukol

8-kun NDLS IB 2 doza oral +4/91 1.2 doza (agar inkubatorida qilinmasa)

12-kun IBD M+ 1.2 doza oral

14-kun Nd BanAF 1.5-2 doza oral

18-kun ND LS IB 2 doza oral

28-kun ND LS IB 2 doza oral.

Parrandalarning yuqumli kasalliklariga qarshi veterinariya profilaktik choratadbirlariga - bu parrandaxonalarni va uning xududini deratizatsiya, dezinfeksiya va dezinfeksiya qilish va binoni ma'lum muddatga, ya'ni 20-25 kunga sanatsiyaga qo'yish kiradi. Bir vaqtning o'zida bir xil yoshdagi parrandalar bilan binoni to'ldirish, o'z vaqtida immunizatsiya qilish va invazion kasalliklarga qarshi muntazam profilaktik tadbirlar olib borish.

Broyler jo'jalarini yuqumli kasalliklarga qarshi emlash sxemasi

Asosiy emlash tartibi (klassik sxema)

Jo'ja yoshi	Kasallik	Vaktsina turi	Qo'llash usuli
1-kun	Marek kasalligi	Tirik vaktsina	Inkubatsiyada yoki jo'ja chiqqach mushak ichiga
5-7 kun	Nyukasl kasalligi (NDV) 1-emlash	Tirik, lentogen shtamm (LaSota, Hitchner B1)	Ichimlik suvi yoki ko'z/burun tomizish
10-14 kun	Infektsion bursit (Gumboro) 1-emlash	Tirik vaktsina	Ichimlik suvida
18-21 kun	Gumboro 2-emlash	Tirik, kuchliroq shtamm	Ichimlik suvida
20-25 kun	Nyukasl kasalligi 2-emlash	Tirik, LaSota	Ichimlik suvida yoki aerosol
30-35	(Ba'zan) Infektsion bronxit yoki	Tirik	Suv orqali yoki purkash

Jo'ja yoshi	Kasallik	Vaktsina turi	Qo'llash usuli
kun	qo'shma NDV+IB vaktsina		

Yuqumli kasalliklari

Parrandachilik xo'jaliklarida Nyukasl, Marek va Gamboro kasalliklariga majburiy tarzda parrandalarning barchasi emlanadi. Bu kasalliklarga qarshi emlash har qanday immunoprofilaktika dasturining asosini tashkil qiladi.

Marek kasalligi (parranda paralichi, parranda neyrolimfomatozi, parranda enzootik neyroensefalomiyeliti) - yuqori kontagioz o'sma (limfoproliferativ) shaklidagi, virus etiologiyali, tovuqsimonlar otryadiga mansub parrandalarda rivojlanuvchi kasallik, uch xil yunalishda: nevrалgiya, ko'z va o'simta (shish) ko'rinishida kechadi.

Qo'zg'atuvchisi - Nekresvirus oilasiga mansub virus bulib, asosan aerogen yo'li bilan tarqaladi.

Klinik holati - inkubatsion davri parranda yoshiga bog'liq bo'lib, 2 haftadan 16 haftagacha o'zgarishi mumkin. Oyoq, qanot, bo'yin, jig'ildonda rivojlanib boruvchi parez va paralichlar paydo bo'ladi, harakatlar bir-biriga nomuvofiq bo'ladi, to'liq paralich bulgunga qadar qadam tashlashi qiyinlashadi va oyoq barmoqlari buralib, tirishib qolish holatlari kuzatiladi.

Davolash va profilaktika o'stirishga qabul qilinayotgan jo'jalarni bir kunligida Marek kasalligiga qarshi amaldagi qo'llanmaga muvofiq bir marta inkubatorida emlanadi. Hozirgi vaqtda quyidagi vaksinalar qo'llanilmoqda:

Marek kasalligiga qarshi FS-126 shtammidan kurka herpes virusi va tovuq herpes virusidan suyuq kultural virusvaksinalari (Kursk biofabrikasi, Shelkovsk biokombinati);

Marek kasalligiga qarshi kurka herpes virusi va tovuq herpes virusi shtammidan suyuq bivalent kultural virusvaksinalari (VNIIZJ);

Vaksina Nobilis Risraavac i Nobiiis: + SA126 ("Intervet");

Keng spektrli kombinatsiyaga ega bo'lgan vektorli vaksinalar: "Vectormune HVT+NDV" (Marek+Nyukasl), "Vectormune NVT+IBD" (Marek+Gamboro), (SEVA kompaniyasi, Fransiya).

Tavsiya etilayotgan vektorli vaksinalar gen (irsiyat faktori) injeneriyasining nanotexnologiyasi progressiv maxsuloti xisoblanadi.

Nyukasl kasalligi (Psevdochuma) - yukori tezlikda tarqaluvchi parrandalarning virus kasalligi, respirator, visseral organlarini, markaziy asab sistemasini zararlovchi va mahsuldorlikni pasayib ketishi va xalok bo'lishi bilan yakunlanuvchi o'ta yuqumli kasallikdir.

Qo'zg'atuvchisi - paramiksovirus guruxiga kiruvchi RNK - saklovchi virus. Parranda aerozol (xavo orkali) yoki peroral (ogiz orkali) zararlanishi mumkin.

Klinik holati - inkubatsion davri qisqa - 4 kun. Kasallangan parranda tushkun, harakatsiz, tashqi ta'sirga javob kaytarmaydi. Boshidagi terisi qon aylanishining buzilishi natijasida ko'karib qoladi, burun teshiklaridan shilliq suv ajralib chiqa boshlaydi, axlati suyuq yashil yoki sariq rangda, ayrim hollarda qon aralash bo'ladi. Nerv - falajga oid belgilari rivojlanadi.

Davolash va profilaktika - ushbu kasallikning samarali davolash yo'li yuk bo'lgani bilan texnologik jarayonning asosiy usuli hisoblangan kasallikka moyil bo'lgan parrandada ishonchli immunitet hosil qiluvchi emlash usullari keng qo'llaniladi.

Nyukasl kasalligining oldini olish maqsadida maxsus lentogen virus shtammi mavjud bo'lgan tirik vaksinalar, inaktivlangan va kombinatsiyalangan vaksinalardan foydalaniladi. Asosan "Bl", "H", "Bor-74", "La-Sota" nomli vaksina shtammlari qo'llaniladi.

Keng spektrli kombinatsiyaga ega bo'lgan vektorli vaksina "Vectormune HVT+NDV" (Marek+Nyukasl), SEVA, Fransiya, mustahkam immunitet hosil qiladi.

Yuqumli bronxit (YUB) - barcha yoshdagi parrandalarga yuqadigan kontagioz virus kasalligi. Jo'jalarning nafas olish organlarini zararlaydi va katta yoshdagi parranda mahsuldorligi tushib ketadi.

Kasallik kuzg'atuvchi koronavirus guruhiga ta'luqli bo'lib, tovuq murtaklari va hujayra tuqimalarida o'stirish mumkin. Quzg'atuvchisi bir necha shtammlarga bo'linadi (30 ga yaqin serotiplari mavjud). Kontakt orqali aerogen, transovarial yullari bilan yuqadi. Kasal bo'lib tuzalgan parranda 50-100 kun virus tashuvchi bo'lib qoladi. Kolibakterioz, respirator mikoplazmoz qo'zg'atuvchilari bilan asoratlanganda infeksiya yashirin shaklida kechadi.

Klinik holati - inkubatsion davr 1 kundan 5 kungacha davom etadi. Kasal parrandada holsizlik, ishtaha yuqolishi, hansirash, xirillash, yutal, aksirish, seroz konyunktivit, rinitlar kuzatiladi. Kasallanish yuqori darajada, o'lim 25 foizni tashkil etadi. Ikki haftalik yoshda kasallanish oqibatida tuxumdon va tuxum yullarini rivojlanishi kechikadi. Katta yoshdagi tovuqlar kasallanishi oqibatida tuxum mahsuldorligi 35-50 foizga kamayadi, tuxum ichida sersuv suyuqlik bo'ladi, tuxum qobig'i tuzilishi buziladi. Tuxumdon va tuxum yulini infantilizmida tuxum shakllanishi buziladi.

Davolash va profilaktika - maxsus profilaktika tadbirlari inaktivlangan va tirik vaksinani qo'llashga asoslangan. Vaksinatsiya sxemasi kasallikni intensivligiga bog'liq. Yuqumli bronxit kolibakterioz, mikoplazmozlar bilan birga aralash infeksiya holida bo'lsa, unda antibakterial preparatlari (oksitetratsiklin, neomitsin sulfat, ampinsilin) aerosol holatda 4 ml/m³ hisobidan qo'llaniladi.

Gamboro kasalligi (PS, IBK - yuqumli bursal kasalligi, yuqumli bursit, yuqumli nefroz) - keng tarkalgan, kontagioz, ayniksa 2-15 xaftalik yoshdagi jo'jalar virus kasalligi. Sababchisi virus bo'lgan, kasal parranda bilan aloqa natijasida parrandalar orasida tez tarqaluvchi (kontagioz) yuqumli kasallik, asosan 2 -15 haftalik jo'jalar zararlanadi va boshqa kasalliklardan farq qiladigan, o'ziga xos fabritsiyev sumka, nefroz, mushaklar orasida qon quyilish va diareyalar kuzatiladi. Immunnokompetent tizimini so'ngidirilishi bilan ajralib turadi.

Qo'zg'atuvchi viruslarning Birnae Viridae oilasiga mansub. Yuqumli bursit tez tarqaluvchi o'ta kontagioz kasallik bo'lib, qisqa vaqt ichida butun parranda organizmini egallab oladi. Kasallik 5-6 kunga cho'zilishi mumkin. Kasallangan jo'jalar kasal tarqatuvchi hisoblanadi, virus ularning axlati bilan ajralib chiqadi va ozuqa, suv, to'shamalarga o'tadi.

Klinik holati - kasallikning birinchi simptomlari - axlat suyuq, oq-sariq rangdagi diareya, ishtahaning keskin yo'qolishi, oyoq va boshini qaltirashi, birdaniga nobud bo'lishi. Kasallik va o'lim tez kuchayadi hamda 3- 4 kunda maksimum darajaga yetadi. Virusning virulentligi pasaygan sari o'lim holatlari ham kamayadi, odatda 8-9 kunda o'tadi.

Kasallikning klinik shaklidan subklinik shaklida jo'jalar 4 haftagacha bo'lgan yoshda bo'lishi, shu davrda organizmni immun tizimi tezda ishdan chiqishi bilan farq qiladi. Kasalliak yosh jo'jalarda klinik belgilarisiz kechishi va fabritsiyev xaltasini shikastlanishi, V-limfatsitlar sonini kamayishi va immunosupressiya rivojlanishi bilan xarakterlanadi.

Davolash va profilaktika- Gamboro kasalligini maxsus profilaktikasi uchun vaksinalar qo'llaniladi, ushbu vaksinalar antigen aktivligi bo'yicha 4 turga bo'linadi:

Yumshoq - attenuirlangan virusdan bulib, bursada jiddiy o'zgarishlar kelib chiqarmaydi. Ona antijismlarga ega bo'lmagan jo'jalarga samarali ta'sir etuvchi. Ushbu vaksinalar simptomsiz kechadigan turi dala viruslarini patogenlik quvvatini pasaytirish uchun ham qo'llanadi.

O'rtacha virulent virusli vakcina oralik turi. Utkir yuqumli kasallik avj olgan sharoitda va statsionar yuqumli kasalliklardan holi bo'lmagan xo'jaliklarda, shu bilan birga ona antijismlariga ega jo'jalarda va yosh jo'jalarda ham yaxshi immunitet hosil qiladi. Bunday vaksinalarga Gamboro kasalligiga qarshi "Vinterfild 2512" shtammli vakcina kiradi.

Inaktivlantirilgan vakcina yosh parrandalar va ona tovuklarda ham kuchli immunitet hosil qiladi, natijada jo'jalarda ona immuniteti kuchli bo'ladi va jo'jalarni Gamboro kasalligidan yaxshi himoya qiladi.

Dunyoda immunitet kompleksi va texnologiyasi bo'yicha lider hisoblangan "CEVA Sante Animale" kompaniyasi (Fransiya) vektorli vaksinalari:

"Cevac Transmune IBD" - Gamboroga qarshi immunitet texnologiyasi kompleksi. Yangilangan immunitet texnologiyasi qo'llash orqali yaratilgan noyob vakcina, inkubatorida qo'llash natijasida Gamboroning barcha shtammplariga qarshi to'liq himoya hosil qiladi. Shu bilan birga parrandaxonada emlash muammosini olib tashlaydi.

Keng spektrli kombinatsiyaga ega bo'lgan vektorli vakcina "Vectormune NVT+IBD" (Marek+Gamboro), mustahkam immunitet hosil qiladi.

Yuqumli laringotraxeit (YULT) - o'tkir kechuvchi parranda kasalligi, traxeya, hiqildoq va ko'z shilliq pardasini zararlovchi yuqumli kasallik. Tovuqsimonlar otryadiga mansub parrandalar yuqori kontagioz virus kasalligi, traxeya, hiqildoq shillik pardasi yallig'lanishi, konyunktivitlar kuzatiladi.

Kasallik qo'zg'atuvchisi Herpesviras oilasiga kiruvchi yuqori kontagioz virus hisoblanadi.

Ushbu kasallikka tovuqlar, kurkalar, qirg'ovullar, ayniqsa 1 yoshgacha bo'lgan yosh parrandalar moyil hisoblanadi.

YULT ko'pincha aerogen yuli bilan o'tadi, shu bilan birga ozuqa, suv, parvarish qilish buyumlari orqali ham o'tishi mumkin. Qisqa vaqt ichida ushbu kasallik barcha parrandaga tarqab ketishi mumkin.

Klinik holat - inkubatsiya davri 6-10 kundi tashkil etadi va parrandaning tabiiy rezistentligiga, virusning virulentligiga va boqish sharoitiga bog'liq bo'ladi. O'tkir (kuchli), o'rtacha, surunkali va simptomsiz kasallik kechish formalariga bo'linadi.

O'tkir formasida fibrinozli - gemorragik yallig'lanish oqibatida nafas olish qiyinlashadi. Rinit, sinusit, konyunktivit, panoftalmiyalar tez-tez uchrab turadi. Tuxum mahsuldorligi keskin 30-50 foizga tushib ketadi (kasallikning og'ir kechishiga qarab). Nafas bo'g'ilishidan o'lish holatlari 50 foizni tashkil etadi.

O'rtacha formasida klinik belgilari yaqqol bo'lmaydi, konyunktivit, yutal, aksirish hollari kuzatiladi.

Davolash va profilaktika - sekundar infeksiyani rivojlanishini oldini olish uchun kimyoviy preparatlar (yod kristall kukuni va alyumin upasi, yodinol, yodtrietilenglikol) bilan aerozol qilinadi.

Oxirgi paytlar kasallikdan xoli bo'lmagan xo'jaliklarda YULTga qarshi vaksinatсия tadbirlari o'tkazish yo'lga qo'yilgan. Bunda vaksinatсия sxemasiga ko'ra rioya qilish kerak. Parrandada immunitet xosil qilish uchun 2 marta emlanadi, lekin ikkinchi emlash 4 haftadan kech bo'lmasligi va tuxum berish davri boshlanmasdan oldin bo'lishi shart. Vaksinani

ishlatish qo'llanmasiga asosan emlash uchun faqat sog'lom parranda olinadi, nimjon, kuchsiz va kasal parranda saralab tashlanadi.

YULTga qarshi vaksinani qo'llash usullari ko'p bo'lgani bilan (kloakaga, aerosol, ko'z konyuktivasiga, suv bilan) eng ishonchlisi ko'z konyuktiviga tomizish hisoblanadi. Shu usulda, masalan yuqumli laringotraxeitga qarshi liofilizillangan tirik vaksina Nobilis ILT ("Intervet") qo'llaniladi.

YULTdan holi bo'lmagan xo'jaliklarda unga qarshi "VNIVIP" shtammidan quruq liposomal virusvaksina maxsus profilaktik tadbirlarda qo'llaniladi. Klinik sog'lom bo'lgan parrandani aerosol uslubi bilan 16-20 kun interval bilan, okulyar uslubda 20-30 kun va kloaka uslubida 30 kun interval bilan emlanadi.

Keng spektrli kombinatsiyaga ega bo'lgan vektorli vaksina "Vectormune FP+LT" (Chechak+Laringotraxeit), mustahkam immunitet hosil qiladi.

Pulloroz - tif - barcha turdagi parrandalar orasida keng tarqalgan bo'lib, o'tkir, o'rta va surunkali kechadigan, parranda yoshiga bog'liq bo'lgan kasallikdir.

Kasallik qo'zg'atuvchisi serologik tomondan turli shtammlar chaqiradi. Tovuqsimonlar otryadiga ta'lluqli parrandalarda kasallik qo'zg'atuvchisi *S. Pullorum-gallinarum* bo'lib, zich va suyuq bulyon o'stirish muxitida yaxshi rivojlanadi, "agar" muxitida "R" va "S" kolonnalari paydo qiladi, tashqi muxit ta'siriga chidamli. Tovuqlar simptomsiz pulloroz qo'zg'atuvchisi tashuvchisi bo'lishi va nasliga transovarial yo'li bilan yuqtirishi mumkin. Inkubatsiya vaqtida pulloroz bilan kasallangan tuxumlardagi murtaklarning nobud bo'lish hollari kuzatilgan. Bundan tashqari tuxumdan ochib chiqqan kasal jo'jalar atrof muhitni zararlaydi, natijada boshqa sog'lom jo'jalarga ham yuqtiradi.

Klinik holati - tabiiy sharoitda kasallik yuqqan jo'jalarda inkubatsion davr 3-5 kun kechadi, kasal jo'jalar holsizlanib, ishtahasi yo'qoladi, ichi ketadi, axlati oppoq va hidi o'ta yoqimsiz bo'ladi, seroz-fibrinozli konyuktivit, harakat koordinatsiyasini buzilishi kuzatiladi. Kasal parranda kurikdan o'tkazilganda, anal teshigining atrofida yat-parlari yopishib, anal teshigi bitib qolganini kuzatamiz. Parranda intoksikatsiyadan nobud bo'ladi. Katta yoshdagi parrandaning tuxum mahsuldorligi yuqoladi, tuxum sarig'i peritoniti, ovariit, salpingitlar kuzatiladi, kasallikning nerv-paralich shaklida qanot va oyoq bug'imlarida yallig'lanish jarayoni kuzatiladi.

Davolash va profilaktika - Pulloroz - tif kasalligidan xo'jalikni holi qilish uchun kompleks umumiy va maxrus tadbirlar o'tkazish kerak bo'ladi: infeksiya o'chogi, kasal kuzg'atuvchi va kasallikka moyil sog'lom organizmlar o'rtasidagi epizootik zanjirni uzish kerak. Ushbu maqsadda kasal va kasallikka gumon qilingan parranda yo'q qilinadi, qolgan parrandaga eng samarali bo'lgan nitrofurani, sulfanilamid preparatlari toza miqdorda yoki antibiotiklar bilan birga parranda organizmidagi infeksiyani bostirish uchun beriladi. Doimiy ravishda inkubatoriya, parrandaxonalar, ozuqalar, parranda hamda naslli tuxumlar bilan kontaktga kiradigan boshqa barcha narsalarni, atrof muxitda kasal quz'atuvchini yo'q qilish uchun sanatsiya kilinadi.

Kolibakterioz (koliseptitsemiya, koliinfeksiya, esherixioz) - tovuq, o'rdak, g'oz, kurkalar yuqumli kasalligi, shu bilan birga yovvoyi qushlar ham kasallanishi mumkin.

Kasallik qo'zg'atuvchisi *Escherichia coli* bo'lib, 0,5-3 mkm kattalikda, grammanfiy tayoqchadir. Ayrim serotiplari endotoksin ishlab chiqish qobiliyatiga ega. Serologik usul bilan kasal qo'zg'atuvchini tipizatsiya qilish mumkin. Parrandada ko'pincha 01, 02, O78, 0113 va boshqa serologik tiplari ajratib olingan. Bir xo'jalikning bir nechta ishlab chiqarish zonalaridan qo'zg'atuvchining turli xil serotiplarini ajratib olish mumkin. Kasallik asosan aerosol yuli bilan tarqaladi. Koliseptitsemiya ko'pincha virus va bakteriyali kasalliklar assotsiatsiyasi bilan birga kechadi.

Nazorat savollari:

1. Parrandachilik xo'jaliklarida emlamalar jadvali haqida ayting.
2. Parrandachilik xo'jaliklarida antibiotiklar jadvali haqida ayting.
3. Parrandachilik xo'jaliklarida probiotiklar haqida ayting.
4. Broiler

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1 . Davlatov R.B., Salimov X.S., Xudjamshukurov A.N. Parrandalar kasalliklari. O'quv qo'llanma. Samarqand, 2018. - 186 bet.
- 2. Salimov X.S., Qambarov A., Salimov I.X. Epizootologiya va infeksiyon kasalliklar. Darslik. Toshkent, 2021. – 739 bet.
- 3. Haqberdiyev P.S. Qurbonov Sh.X. Parazitologiya fanidan amaliy va laboratoriya mashq'ulotlari. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2015. -216 bet.
- 4. Bakirov B.B. Ichki yuqumsiz kasalliklar. O'quv qo'llanma. Samarqand, 2015.- 435 bet.
- 5. Бессарабов Б.Ф., Сушкова Н.К., Садчиков С.Ю. Иллюстрированный Атлас болезней птиц. Москва-2015.- 164 с.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik. "Toshkent, "Tasvir" nashriyot uyi, 2021. – 52 bet.
2. Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik-milliy g'oyamizning poydevoridir. Toshkent, "Tasvir" nashriyot uyi, 2021. – 36 bet.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent, "O'zbekiston" nashriyoti, 2022. – 416 bet.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-martdagi "Veterinariya va chorvachilik sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5696 son Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 31-martdagi "Veterinariya va chorvachilik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-187-son qarori.
6. Бондаренко С.П. Разведение и выращивание страусов. Учебное пособие. Донецк – 2003 год.
7. Бакулин В.А. Болезни птиц. Учебник. Санкт-Петербург, 2006.-780 с.

